



Eshtemirova Maftuna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti

HOZIRGI ZAMONAVIY DAVRDA FARZAND TARBIYASIGA OTA-ONANING TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi davrda farzand tarbiyasiga ota-onaning ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Axborot texnologiyalarining ta'siri, emotsional aloqa, gender yondashuvi, sotsiologik muhit va xalqaro tarbiyaviy tajriba asosida ota-onaning farzand shaxsining shakllanishidagi roli ochib beriladi. Maktab, mahalla va oilaning hamkorlikdagi tarbiyaviy ta'siri, tarbiya uslublari va ularning samaradorligi tahlil qilinib, zamonaviy tarbiyaning dolzarb muammolarga ilmiy yondashuv asosida yechimlar taklif etilgan. Shuningdek, maqolada sotsiologik so'rovlar asosida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi faol ishtiroki, muammolar va ularga qarshi kurashish vositalari muhokama etilgan.

Tayanch so'zlar: farzand tarbiyasi, ota-ona mas'uliyati, axborot texnologiyalari, emotsional aloqa, gender yondashuvi, sotsiologik ta'sir, zamonaviy pedagogika, oilaviy tarbiya, maktab-mahalla-oila hamkorligi, shaxs shakllanishi.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние родителей на воспитание детей в современную эпоху с научно-теоретической и практической точек зрения. На основе влияния информационных технологий, эмоциональной коммуникации, гендерного подхода, социологической среды и международного воспитательного опыта раскрывается роль родителей в формировании личности ребенка. Проанализированы совместное воспитательное воздействие школы, района и семьи, стиля воспитания и их эффективность, предложены решения актуальных проблем современного воспитания на основе научного подхода. Также в статье рассматривается активное участие родителей в воспитании детей на основе социологических опросов, проблемы и средства борьбы с ними.

Ключевые слова: воспитание детей, родительская ответственность, информационные технологии, эмоциональная коммуникация, гендерный подход, социологическое воздействие, современная педагогика, семейное воспитание, сотрудничество школа-соседство-семья, формирование личности.

Annotation. This article analyzes the influence of parents on the upbringing of children in the modern period in a scientific-theoretical and practical way. On the basis of the influence of Information Technology, emotional communication, gender approach, sociological environment and international educational experience, the role of parents in the formation of a child's personality is revealed. The educational impact of the school, makhalla and family in cooperation, educational methods and their effectiveness were analyzed and solutions were proposed based on a scientific approach to the pressing problems of modern education. The article also discusses the active participation of parents in the upbringing of children, problems and means of combating them on the basis of sociological surveys.

Keywords: child education, parental responsibility, information technology, emotional communication, gender approach, sociological impact, modern pedagogy, family education, School-Makhalla-Family cooperation, personality formation.

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida farzand tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Farzand tarbiyasi muammosi – oilaviy, ijtimoiy, ma’naviy va pedagogik jihatdan o’ta mas’uliyatli masala bo’lib, unda ota-onaning o’rni beqiyosdir. Hozirgi davrda axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa tashqi omillar farzand tarbiyasiga kuchli ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy oilada farzand tarbiyalashda ota-onaning faolligi, bilimdonligi va ijtimoiy mas’uliyat hissi yanada oshishi talab etiladi.

Shuningdek, oilaviy tarbiyada yuzaga kelayotgan muammolar nafaqat O’zbekiston, balki dunyo miqyosida kuzatilayotgan umumiy ijtimoiy hodisadir. YuNISEF va Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib borilgan xalqaro tadqiqotlarga ko’ra, 2022-yilda dunyo bo’yicha bolalarning 41 foizi ota-onalari tomonidan faol tarzda tarbiyaviy suhbatlar asosida tarbiyalangan, biroq 27 foizi muntazam emotsional befarqlikka duch kelgan. Ushbu ko’rsatkichlar ota-onalarning farzand tarbiyasida hissiy ishtiroki va munosabatlarining hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ayrim G’arb mamlakatlarida “positive parenting” konsepsiyasi keng joriy etilmoqda. Bu yondashuvga ko’ra, ota-onalar bolalarni jazolash yoki qattiqqo’llik orqali emas, balki ularning ruhiy holatini tushunish, individual xususiyatlarini e’tiborga olish va ijtimoiy mas’uliyatni o’rgatish orqali tarbiyalaydi. Ushbu tajriba bizning sharoitimizda ham qo’llansa bo’ladi, biroq u mahalliy mentalitet, qadriyatlar va an’analalar bilan uyg’unlashtirilishi lozim.

Oila – har bir shaxsning shakllanishidagi ilk va eng muhim ijtimoiy muhit. Bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari, xulq-atvori, ijtimoiy ko’nikmalari va emotsional intellekti, asosan, oilaviy muhitda, ota-ona bilan bevosita muloqot orqali shakllanadi. Zamonaviy oilalar turli shakllarga ega bo’lishi mumkin (to’liq oilalar, yakka ota-ona oilalari, kengaytirilgan oilalar), ammo ularning barchasida farzand tarbiyasi mas’uliyati ota-onalar zimmasida qoladi. Bugungi kunda ota-onalar nafaqat moddiy ta’minotchi, balki bolaning emotsional tayanchi, ilk murabbiyi va hayotiy ko’nikmalarini singdiruvchi asosiy shaxslar sifatida ham namoyon bo’lishlari lozim.

Maqsad va uni asoslash. Mazkur maqoladan ko’zlangan asosiy maqsad – hozirgi zamonaviy davrda ota-onaning farzand tarbiyasiga ko’rsatayotgan ta’sirini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish hamda bu jarayondagi dolzarb muammolar

va ularning yechimlarini ko’rsatib berish. Tadqiqot doirasida farzand tarbiyasining ijtimoiy-psixologik, pedagogik va madaniy omillari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, muammoning o’rganilganlik darajasi ham ko’rib chiqiladi. Turli olimlar, pedagog va psixologlar tomonidan o’rganilgan nazariyalar asosida bugungi kun talablariga mos xulosalar chiqariladi. Tanlangan muammoning o’ziga xosligi shundaki, zamonaviy davr farzand tarbiyasiga o’ziga xos yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ota-onalarning roli an’anaviy shakllardan farqli ravishda zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlarga asoslangan bo’lishi kerak.

Farzand tarbiyasida texnologiyalar ikki tomonlama ta’sirga ega: bir tomondan, ular ta’lim olish, tafakkurni kengaytirish, dunyoqarashni shakllantirishda qulay vosita hisoblanadi. Masalan, zamonaviy ta’lim platformalari (Coursera, Khan Academy, Udemy) orqali o’quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyati ortmoqda. Biroq boshqa tomondan, Internetdan nazoratsiz foydalanish, zo’ravonlik sahnalariga boy kontent, noto’g’ri axloqiy namunalar va virtual aloqalar bolalarda real hayot bilan bog’lanishni susaytiradi.

Shuning uchun, ota-onalar texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini o’zlari mukammal egallashi va farzandlariga ushbu bilimni puxta yetkazishlari lozim. Raqamli sog’lom muhitni yaratish hozirgi zamon tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida o’zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro’sining yuqori bo’lishi, bolalarga talab qo’yishda oila kattalari o’rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsiyatini tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevis va izzatini joyiga qo’yish, oilada qat’iy rejim hamda kun tartibini o’rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o’zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabuskorlik sifatlarini qo’llab-quvvatlash ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanini ko’rsatadi.

Kutilgan natijalarga oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo’lsagina, erishish mumkin. Bu borada ota-onalarning oilada farzand tarbiyasi va ma’naviy-axloqiy, ruhiy hamda jismoniy kamoloti uchun zarur bo’lgan ijobiy ota-onalik ko’nikmalarining o’zlashtirib borilishi katta ahamiyatga ega. Har bir ota-ona o’z farzandini dunyodagi eng toleyi baland, ma’rifatli va saodatli bo’lishini istaydi hamda bunga erishish yo’lida harakat qiladi. Shunday ekan, biz

maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari, ota-onalar mahalla bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasiga hech qachon befarq bo'lmaylik. Farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni o'zligimiz va kelajakka bo'lgan e'tibor deb bilib, yosh avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning sog'lom o'sishi, to'g'ri tarbiya hamda ta'lim olishini ta'minlash barchamizning burchimizdir.

Farzand tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi ota-onaning har bir qadami, yurish-turishi, odob-axloqi va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarida ezgu fazilatlarini ko'rsatib borishi zarur. Chunki bolalar tug'ma ravishda juda tez taqlid qiladigan va diqqat bilan kuzatadigan fe'l-atvorga ega bo'ladi. Shu bois, atrofdagilarning xatti-harakatlari, ular xoh ongli, xoh ongsiz bo'lsin – bola ruhiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish. Oila muhitida doimiy qo'pol muomala, yolg'on gaplar, nojo'ya harakatlar mavjud bo'lsa, bu farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan sog'lom bo'lmagan muhitni yuzaga keltiradi.

Farzandga to'g'ri yo'l ko'rsatishda ota-onaning nutqi va muomalasi juda muhim ahamiyatga ega. Agar bola doimiy ravishda ota-ona tomonidan dag'allik, haqorat yoki jismoniy zo'ravonlikka duch kelsa, bu uning ruhiy holatida chuqur iz qoldiradi. Bunday oilaviy muhitda ulg'aygan bola ijtimoiy hayotda ham ko'pincha muammoli, "ma'naviy zaif" shaxsga aylanishi mumkin. Bu esa jamiyatning umumiy ma'naviy muhitiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi.

Shubhasiz, bola tarbiyasi nihoyatda murakkab va mas'uliyatli jarayondir. Har bir ota-ona o'z ustida tinimsiz ishlashi, farzand tarbiyasiga doir bilimlarni muntazam o'rganib borishi zarur. Chunki bu soha oddiy tajriba va umumiy tavsiyalar bilan chegaralanmaydi. Aksincha, u ichiga diniy-axloqiy saboqlarni, psixologiya, pedagogika, tibbiyot va axloqiy me'yorlarga oid chuqur bilimlarni qamrab olgan murakkab tizimdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Zamonaviy jamiyatda tarbiya jarayoni ko'p omilli va murakkab tizimdir. Ota-onalar farzandga nafaqat axloqiy-ruhiy ta'sir ko'rsatadilar, balki ularning ijtimoiylashuvi, shaxsiyati va hayotiy qarashlarining shakllanishida asosiy omil bo'ladilar.

Ota-onaning namunasi. Farzandlar ko'proq ota-onaning harakatlari, munosabatlari va kundalik hayotdagi odatlaridan ibrat oladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolaning xarakteri va shaxsiyati dastlabki yillarda shakllanadi va bu jarayonda eng katta rol ota-onaga tegishlidir. Shu bois ota-onalar o'zlarining shaxsiy madaniyati,

ijtimoiy faoliyati va muomala madaniyati bilan farzandga ta'sir ko'rsatadilar.

Axborot muhitining ta'siri. Bugungi kunda bolalar informatsion bosim ostida ulg'aymoqda. Internet, televizor, ijtimoiy tarmoqlar ularning fikrlash tarzi, qadriyatlari va ruhiyatiga salmoqli ta'sir o'tkazmoqda. Bu vaziyatda ota-onaning vazifasi – bolani axborotdan to'g'ri foydalanishga, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, noto'g'ri axborotlardan himoya qilish.

Emotsional aloqaning ahamiyati. Psixologlar fikriga ko'ra, farzand tarbiyasida emotsional aloqa juda muhim. Farzand bilan iliq, ishonchli munosabatlar o'rnatish, uni eshitish, tushunishga harakat qilish – tarbiyaning eng samarali vositalaridandir. Sovuqqonlik, befarqlik va nazoratsizlik esa bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

Tarbiyaviy metodlarning zamonaviylashuvi. Pedagogikada tarbiyaning avtoritar, demokratik va liberal uslublari mavjud. Hozirgi kunda demokratik yondashuv ko'proq samarali deb hisoblanmoqda. Bu yondashuvda ota-ona farzandni fikr yuritishga, mustaqil qaror qabul qilishga undaydi, uning fikriga hurmat bilan qaraydi. Shu orqali bola o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantiradi.

Ilmiy-amaliy asoslar. Mazkur tadqiqot doirasida 50 nafar ota-ona bilan so'rovnoma o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, ularning 70 foizi farzandlari bilan kundalik muloqotni muhim deb hisoblaydi, 60 foizi esa axborot texnologiyalarining bolaga salbiy ta'siri borligini tan olgan. Bu esa ota-onalarning zamonaviy tarbiyaviy muammolar borasida ma'lumotli ekanligini ko'rsatadi, biroq ularni hal qilishda amaliy bilim yetishmasligi aniqlangan.

Farzand tarbiyasida o'g'il va qiz farzandlar o'rtasida teng e'tibor va imkoniyat berilishi kerak. Gender stereotiplari, masalan, "o'g'il bola yig'lamasligi kerak" yoki "qiz bola faqat uy ishlari bilan shug'ullanishi kerak" kabi tushunchalar bola ongida noto'g'ri ijtimoiy rol modelini shakllantiradi. Hozirgi davrda bola shaxsini erkin va ijtimoiy jihatdan faol bo'lgan shaxs sifatida shakllantirish – ota-onaning asosiy vazifasi.

Qiz va o'g'il bolalarning tarbiyasida teng huquqlilik prinsipiga amal qilish, ularning qiziqishlariga ko'ra faoliyat tanlash erkinligini qo'llab-quvvatlash – rivojlangan jamiyatning zaruriy talabi.

O'zbekiston sharoitida farzand tarbiyasida mahalla institutining o'rni beqiyos. Mahalla nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki tarbiyaviy muhit hamdir. Ota-ona, mahalla va maktab o'rtasidagi uzviy hamkorlik,

ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarning xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Maktab psixologi, sinf rahbari va mahalla faollari o'rtasidagi muntazam muloqot bolaning tarbiyaviy muammolarini erta aniqlash va ularga kompleks yondashish imkonini beradi. Har bir bola atrofida ijtimoiy himoya va tarbiyaviy ko'mak zanjiri yaratilishi oiladagi tarbiyaning ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, farzand shaxsining shakllanishiga faqat oilaviy muhit emas, balki maktabdagi tengdoshlari, ommaviy axborot vositalari, qo'shnilar, jamoat institutlari ham ta'sir ko'rsatadi. Bolaning o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishi, ijtimoiy rollarni to'g'ri anglashida ushbu omillar muhim hisoblanadi.

2023-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, ota-onalarning 65 foizi farzandining ijtimoiy moslashuvi va jamiyatda o'z o'rnini topishini asosiy tarbiyaviy maqsad deb hisoblaydi. Demak, tarbiya nafaqat axloqiy va ruhiy shakllanish, balki ijtimoiy tayyorgarlikdan iborat bo'lishi zarur.

Zamonaviy davrda farzand tarbiyasi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bola hayotga ilk qadamni qo'ygan vaqtdan boshlab, u atrof-muhit orqali o'ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarini shakllantira boshlaydi. Aynan shu jarayonda ota-onaning roli beqiyosdir. Bola o'zining ilk bilimlarini, axloqiy qarashlarini, muomala madaniyatini va dunyoga bo'lgan munosabatini, birinchi navbatda, ota-onasidan oladi.

Ko'pgina psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasidan e'tibor va mehr ko'rgan bola ko'proq ijtimoiy faol, ruhiy jihatdan bardavom va o'ziga ishonchli bo'ladi. Aksincha, befarqlik, sovuqqonlik yoki haddan tashqari qattiqqo'llik kabi omillar bola shaxsiyatining rivojlanishida salbiy iz qoldiradi. Shuning uchun, ota-onaning har bir muomalasi, ishorasi va hattoki kayfiyati ham bolaga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi.

Tarbiyaning yana bir muhim jihati – ota-onaning bolaga qo'ygan talablarida izchillik va adolatni saqlay olishi. Tarbiyada ikkiyuzlamachilik, ya'ni ota-onaning o'z gapiga amal qilmasligi yoki o'zini boshqa tutib, boladan boshqacha xulq kutishi bolaning ongida chalkashlik, ishonchsizlik va befarqlik tuyg'ularini uyg'otadi. Masalan, bola ota-onaning yolg'on gapirayotganini ko'rib turib, undan rostgo'ylikni talab qilishni ikkiyuzlamachilik sifatida qabul qiladi.

Olimlar tomonidan to'plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi mohiyatan o'zbek muhitiga to'g'ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an'ana va milliy qadriyatlari boshqasiniqiga mos kelmaydi. Muhimi, O'zbekistonda oila va undagi o'zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi ham bu borada yurtimizgagina xos bo'lgan ma'lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham mavjud muammoning hududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish zarur. Ta'kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat hamda hozirgi davr O'zbekiston olimlari M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o'rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta'sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish biz tomonimizdan ko'tarilgan mavzuning dolzarbligini tashkil etadi. Tanlangan mavzuyimiz xuddi mana shuning uchun ham dolzarbdir.

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta'sirini o'z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R. Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari to'g'risida F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, M.Salayeva, N.Sog'inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utepbergenov, G'.Shoumarov va boshqa olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Farzand tarbiyasida doimiy muloqot ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolaning fikrini

eshitish, unga savol berish, hayotiy masalalarda maslahatlashish orqali ota-ona bolaning o'z fikrini erkin bayon qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa uning intellektual va ruhiy o'sishiga yordam beradi. Aksincha, ota-onaning "bola hali yosh, tushunmaydi" degan yondashuvi bolaning fikrini mensimaslikka olib keladi, bu esa bola shaxsiyatining to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Zamonaviy ota-onadan talab etiladigan eng muhim fazilat – o'zini doimiy rivojlantirib borish qobiliyati. Tarbiya bo'yicha zamonaviy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, seminar-treninglar va ota-onalar uchun mo'ljallangan psixologik kurslar orqali o'z ustida ishlash har bir mas'uliyatli ota-onaning burchidir. Chunki bugungi bola – ertangi jamiyat asoschisi. Uning qanday tarbiyalanishi bevosita jamiyat kelajagiga ta'sir qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, farzand tarbiyasi shunchaki oilaviy masala emas, balki ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatdir. Har bir ota-ona farzandiga yuksak insoniy qadriyatlar: halollik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, bag'rikenglik va javobgarlik hissini singdirishga intilishi zarur.

Yakuniy qism. Zamonaviy davr farzand tarbiyasiga yangicha, chuqurroq va kompleks yondashuvni talab qilmoqda. Ota-onalarning faolligi, o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi,

pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi – farzand tarbiyasining muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi omillardan. Farzand bilan sog'lom emotsional aloqa o'rnatish, uni eshitish, zamonaviy tahdidlar (Internet, tashqi madaniyatlar)dan himoya qilish hamda ijtimoiy faoliyatga tayyorlash – ota-onaning zamonaviy davr talabiga mos asosiy vazifalaridir. Maqolada ko'rib chiqilgan fikrlar, ilmiy yondashuvlar va so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, farzand tarbiyasida ota-onaning roli dolzarb va doimiy ravishda o'rganilib, hal qilinishi zarur bo'lgan muammodir. Bu borada ilmiy-uslubiy ishlanmalar, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib boriladigan amaliy loyihalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida hamda taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasi. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini, eng avvalo, oilasi bilan bog'laydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva M. Zamonaviy oilada tarbiyaning psixologik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
2. UNICEF (2022). Positive Parenting Report.
3. Toirova Z. Mahalla institutining farzand tarbiyasidagi o'rni. "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 3(4), 2020.
4. OECD (2021). Trends Shaping Education. OECD Publishing.
5. Rustamova D. Axborot texnologiyalarining bola tarbiyasiga ta'siri. "Pedagogik izlanishlar" ilmiy jurnali, 2(1), 2023.
6. G'aybullayeva S. Farzand tarbiyasida gender tengligining ahamiyati. "Gender tadqiqotlari" jurnali, 1(2), 2018..
7. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan.fals. dokt. ...diss. – Toshkent, 2022.